

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI



**TABIY FANLAR FAKULTETI
KIMYO KAFEDRASI**

“STEREOKIMYO”

**fanidan
o'quv uslubiy majmua**

GULISTON- 2022

Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 201__ yil __ avgustdagi ____ -sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: dotsent Abduraxmanova O'.Q.

Taqrizchilar: Gafurov M.B.

Guliston davlat universiteti Ilmiy Kengashi (« 28.08» 2021 yil № 1- sonli bayonnoma) ning 3 - sonli qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

So'zboshi	5
Kirish. Kimyoda fazoviy tushunchalarning rivojlanishi	7
Ochiq zanjirli birikmalarning optik izomerlari	14
Etilen birikmalarining geometrik izomerlari, izomerlar soni	17
Konformatsiyalar analizi	19
Halqali tuzilishga ega bo'lgan birikmalar stereokimyosi	22
Molekulyar asimmetriya	29
Ratsematlanish. Enantiomeriya. Stereoizomerlarni olish usullari	33
Optik izomerlarni olish usullari	36
Konfiguratsiyani aniqlash	40
Asimmetrik sintez va uning ahamiyati	44
Test topshiriqlari	49
Nazorat savollari	53
Yakuniy nazorat savollari	56
Kurs ishi mavzulari	58
Mustaqil ta'lim uchun savollar	59
Slaydlar	65
Glossariy	74
Stereokimyo fani o'quv dasturi	78
Stereokimyo fanidan ishchi o'quv-dastur	88
Kalendar reja	100
Foydalanilgan adabiyotlar	103

SO'ZBOSHI

Mazkur o'quv uslubiy majmua "Stereokimyo" fani "5140500-Kimyo ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, o'quv uslubiy majmuani yaratishda o'quv dasturidagi asosiy adabiyotlar ro'yxatiga kiritilgan quyidagi: Velikogorodov A.V. Stereoximiya. Stereoselektivno'y sintez. Astraxan. Izd. "Astraxanskiy universitet", 2012. , Iliel E. Osnovo' stereoximii. M.: Binom. Laboratoriya znaniy, 2005., Smit V.A., Dilman A.D. Osnovo' sovremennogo organicheskogo sinteza. M.: Binom. Laboratoriya znaniy, 2009., Reutov O.A., Kurts A.L., Butin K.P. Organicheskaya ximiya. Uchebnik dlya vuzov: V 4-x t. M.: Binom. Laboratoriya znaniy, 2004., Traven V.F. Organicheskaya ximiya. M.: IKTs "Akademkniga", 2004. T. 1-2. kabi adabiyotlardan foylalanildi.

«Stereokimyo» fani organik kimyoning nazariy asosidir. Ushbu kurs tabiiy va organik birikmalarning stereokimyosi, organik moddalarning simmetriyasi, izomerlari, izomerlarining turlari, konformatsiyasi konformerlarning tuzilishini tadqiq qilish usullari , stereokimyoviy qonunlarini o'rganadi,

«Stereokimyo» fani universitetlarning 5140501-Kimyo talim yo'nalishi bo'yicha tayyorlanadigan mutaxassislarni kimyoning eng so'nggi yangiliklari, muammolari va istiqbollariga oid bilimlarni egallashi bilan birgalikda organik kimyoning turli bo'limlariga oid chuqur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. Stereokimyo fanini o'rgatish talabalarga organik birikmalarning fazoviy tuzilishi yordamida ularning fizik-kimyoviy xossalarini nazariy asoslash imkonini beradi.

Ushbu o'quv uslubiy majmuada turli sinf organik birikmalari molekulalarining fazoviy tuzilishi, ularning dinamik o'zgarishi, molekula konformatsiyalarining reaksiyaga kirishish tezligiga va natijasiga ta'sirini, fizik-kimyoviy xossalari taxlil etilgan.

Stereokimyo fanida moddaning konformatsion o'zgarishlarini zamonaviy uslublar, YaMR-spektrlari, kvant-kimyoviy hisoblashlar yordamida taxlil qilinib, organik birikmalarning proektsion formulalar, shar-sterjenli va Styuart-Brigleb

modellari bilan tuzilishi taqqoslanadi. Ushbu fan organik birikmalarda boradigan reaksiyalarda konfiguratsiyaning o'zgarishi va saqlanib qolishini nazariy asoslash, dinamik izomeriya turlarini ko'rsatish, asimmetrik atomga ega bo'lgan va bo'lmagan birikmalarning optik faolligini izohlash, optik faol birikmalarni sintez qilish, ajratish, konfiguratsiyani aniqlash usullarini tahlil etishdan iborat.

KIRISH. KIMYODA FAZOVIY TUSHUNCHALARNING RIVOJLANISHI

REJA:

1. Stereokimyo fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.
2. Stereokimyoning rivojlanish tarixi. Dastlabki stereokimyoviy tushunchalar
3. Stereokimyoning turlari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: stereokimyo, dinamik stereokimyo, konformatsiya, konformatsion analiz, konformatsion izomeriya, dinamik o'zgarish, molekula, organik birikmalar.

Bog' hosil qiluvchi elektronlarning qanday atom orbitalni egallab turishiga qarab, molekular turli fazoviy tuzilishga ega bo'ladi. Moddalarnig tuzilishini stereokimyo fani o'rganadi.

Stereokimyo fani turli sinf organik birikmalari molekularining fazoviy tuzilishi, ulardagi o'zgarishlar, molekula konfiguratsiyalari va turli konformatsion holatlarining reaksiyaga kirishish tezligiga va reaksiyon qobiliyatiga, uning natijasiga ta'sirini, fizik-kimyoviy xossalarida aks etishini o'rganadi.

Fanning vazifasi moddaning konformatsion o'zgarishlarini zamonaviy uslublar, YaMR-spektrlari, kvant-kimyoviy hisoblashlar yordamida o'rgatish, proektsion formulalar, shar-sterjenli va Styuart-Brigleb modellari bilan ishlashni tushuntirish, organik birikmalarda boradigan reaksiyalarda konfiguratsiyaning o'zgarishi va saqlanib qolishini nazariy asoslash, dinamik izomeriya turlarini ko'rsatish, asimmetrik atomga ega bo'lgan va bo'lmagan birikmalarning optik faolligini izohlash, optik faol birikmalarni sintez qilish, ajratish, konfiguratsiyaning aniqlash usullarini tahlil etishdan iborat.

Organik kimyo fan sifatida rivojlanishida dastlab organik moddalarning


tuzilish izomerlari aniqlangan. Keyinchalik fanda organik birikmalarning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar ko'payib borish natijasida fazoviy va optik izomeriya, dinamik izomeriya turlari, dinamik stereokimyo, konformatsiya, konformer, konformerlarni grafik tasvirlash bo'yicha aniq tasavvurlar va ilmiy asoslangan qonuniyatlar kashf qilindi. Optik izomerlarni nomlash, ajratish va olish usullari, ratsemtlanish, molekulyar asimmetriya, atropoizomeriya, turli sinf organik birikmalarining konformatsion o'zgarishlari, ko'priqli, kondensirlangan va makrohalqali birikmalar stereokimyosini taxlall qiladi. Shuningdek, organik birikmalarning dinamik holatdagi konformatsiya o'zgarishlarini, konformerlarni Fisher va Nyumen proektsiyalari yordamida tasvirlash usullarini, turli bog'lanish va gibridlanishga ega bo'lgan birikmalar stereokimyosining moddaning fizik-kimyoviy xossalariga ta'sirini ilmiy izohlash bo'yicha taxlil qilish va o'rganishga kirishildi.

Stereokimyoning turlari

Organik kimyo fanining rivojlanishida izomeriya tushunchasi chuqurlashib, kengayib fazoviy kimyo tasavvurlari bilan boyidi.

Tarkibi bir xil ammo tabiati, atomlar orasidagi bog'larning ketma-ketligi, ularning fazoda joylashgan o'rni bilan farq qiladigan moddalar izomerlardir.

Shu tarifga ko'ra izomerlarni quyidagicha sinflash mumkin:




Tuzilish izomerlari kimyoviy tuzilishi bilan o'zaro farqlanib, uglerod atomining har xil zanjir hosil qilib birikishidan, molekula tarkibidagi qo'sh bog'larning soni, har xil joylashganligi, shuningdek, funktsional guruhlarining holatidan kelib chiqadi.

Fazoviy izomerlar–molekuladagi atomlar yoki atomlar guruhining fazoviy joylanishi bilan farq qiladi. Guruhlarning fazoviy joylashishini tavsiflash uchun ikkita eng muhim tushunchalardan foydalaniladi, ular konfiguratsion izomeriya va molekula konformatsiyalaridir.

Konfiguratsiya-molekuladagi atom va atom guruhlarining fazoda ma'lum tartibda joylashishidir. Bir xil tarkib va bir xil kimyoviy tuzilishga ega bo'lgan organik birikmalar o'zaro konfiguratsiyasi bilan farqlanishi ma'lum, bunday moddalar konfiguratsion izomerlar deyiladi.

Konfiguratsion izomerlarga tarkibida xiral (yoki assimetrik) uglerod atomi bo'lgan birikmalarni misol qilish mumkin. Masalan, sut kislotasining ikkita D- va L- holatlari bir-birining ko'zgidagi aksidek bo'ladi, ya'ni ular **enantiomerlardir**. Enantiomerlar tuzilishi jihatdan o'xshasa ham, ularning molekulasida tarkibidagi guruhlar bir-birining ustiga tushmaydi, balki bir-birining ko'zgidagi aksi kabi ekanligi seziladi. Shuning uchun fazoviy izomeriyaning bu turi optik izomeriya deyiladi.




Optik izomerlarda asimetrik uglerod bilan bog'langan guruhlar fazoda turlicha joylashadi. Yuqoridagi sut kislotaning har ikkala izomerlari ham optik faollikka ega bo'lib, ular yorug'lik nurining qutblanish tekisligini ma'lum burchakga, biri o'ngga, ikkinchisi esa chapga buradi, chapga buruvchi sut kislotasi D- qatoriga kiradi va D-(-) sut kislotasi, o'ngga buruvchi izomeri esa L- qatoriga

kiradi va L- (Q) sut kislota deb ataladi.


Sut kislotaning uchinchi xili (achigan sut kislota) optik faollikga ega emas, uning tuzilishini birinchi bo'lib, L.Paster aniqlagan. Optik faol bo'lmagan sut kislota teng miqdordagi chap va o'ngga buruvchi izomerlarning aralashmasidan tashkil topgan.

Ularning molekulari juft-juft bo'lib birikadi, shuning uchun birining o'ngga buruvchi xossasiga ikkinchi molekulaning chapga buruvchi xossasi halal beradi va natijada modda optik faol bo'lmay qoladi. Bunday moddalarga **ratsematlar** deyiladi.


Moddalarning stereokimyoviy izomeriyasini nomlashda D va L-holat bilan birga yana R, S-sistemi ham qo'llaniladi, masalan Fisher formulasi bo'yicha α -aminokislotalarda $-NH_2$ guruhi assimetrik uglerod atomiga nisbatan o'ng tomonda joylashgan bo'lsa, uning nisbiy konfiguratsiyasi D, chapda joylashgan bo'lsa L (glitserin aldegidiga nisbatan) holida belgilanadi.




L-Аланин




D-Аланин




L - глицерин
альдегиди




D - глицерин
альдегиди




L-Аланин



D-Аланин





L - глицерин
альдегиди



D - глицерин
альдегиди

R, S -sistemi qo'llanayotganda (absolyut konfiguratsiya) xiral atom bilan


bog'langan eng kichik o'rinbosar chizma tekisligining orqasiga joylashib, qolgan uchta o'rinbosarlarning soat strelkasi bo'yicha kattaligi kamayib borish tartibida joylashganda R- ("rectus" - o'ng), agarda teskari bo'lsa S- ("sinister" - chap) deb belgilanadi. O'rinbosarlarning katta-kichikligi atomlarning tartib raqami bo'yicha aniqlanadi. Kattaligini aniqlashda qo'shbo'g' tutuvchi atomlar (yoki atom guruhlari) ning raqamlari ikki barobar hisoblanadi.




11-rasm. Aminokislotalarning ko'zgu izomeriyasi.

Oqsillar tarkibiga kiruvchi α -aminokislotalar L-qatoriga taalluqlidir, bunda L-cys-dan tashqari, u R, S-sistemada R-cys hisoblanadi.

Ikkitadan xiral markazga ega bo'lgan α -aminokislotalar eritro- va treostereomerlar (ikkala xiral markaz ham bir xil konfiguratsiyaga ega bo'lsa – eritro va har xil konfiguratsiyaga ega bo'lsa - treo) ni hosil qiladi.



L-треонин
трео форма



L-треонин
эритро форма

Tabiiy L-treonin treo-shaklga ega.


Ko'pgina moddalar o'z molekulasida bittadan ortiq xiralik markazi saqlaydi. Molekula bitta xiral markazga ega bo'lsa, ikkita fazoviy izomerga, agar ikkita xiral markazga ega bo'lsa to'rtta fazoviy izomerga ega bo'ladi. Xiralik markazlari ko'payib borsa, fazoviy izomerlar soni Vant-Goff formulasi bo'yicha oshib boradi: $N = 2^n$

bu erda: N -izomerlar soni; n -molekuladagi xiral markazlar soni.


Geometrik izomeriya

Geometrik izomeriya- tarkibida qo'sh bog' tutgan birikmalar (SqS, SqS, SqN va boshq.) hamda noaromatik tsiklik birikmalarda uchraydi. Ulardagi geometrik izomeriya (konfiguratsion izomeriya): π -diastereomeriya yoki tsis- va trans- izomeriya deyiladi.


Geometrik izomerlarga etilen 1,2-dikarbon kislotaning tsis- shakli (malein kislota) va trans- shakli (fumar kislota)ni yoki tsiklopropan 1,2-dikarbon kislotaning tsis- va trans- shakllarini misol qilish mumkin.



tsis-izomer



trans-izomer



tsis-izomer

trans-izomer

Tsis- va trans- izomeriyaning vujudga kelishining sababi π -bog' atrofida o'rinbosarning bog' uzilmay turib erkin aylanishi mumkin emasligidir. Ular birbiridan guruhlarining fazoviy joylashishi bilan farqlanadi, buni buten-2 ning sharsterjenli modelida quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

Muhokama uchun savollar:

1. Molekulalarning eng muhim geometrik parametrlarini izohlab bering;
2. Molekula diametri va radiusini hisoblab topish mumkinmi? Qanday hisoblab topish mumkin?
3. Kimyoviy bog'larning uzunligi tushunchasini izohlang;
4. Bog'lanish energiyasini tavsiflang;

2- ma'ruza: OChIQ ZANJIRLI BIRIKMALARNING OPTIK

IZOMERLARI

REJA:


1. Stereoizomerlarni tasvirlash usullari;
2. Optik faol moddalarning hayotiy jarayonlardagi ahamiyati;
3. Bitta va bir nechta assimetrik uglerodga ega bo'lgan birikmalar;
4. Stereokimyoviy nomlanish.

Atomlarning molekula ichida fazoda bir yoki bir nechta σ - bog'lar atrofida

aylanishidan hosil bo'ladigan molekullarning turli holatlariga konformatsion holati deb ataladi. Konformatsion izomerlar (konformerlar) fazoviy izomerlar bo'lib, ularni bir-biridan alohida ajratib olib bo'lmaydi, ular fizikaviy taxlil usullari yordamida aniqlanadi.

Ochiq zanjirli va halqali birikmalarda konformatsion izomerlar uchraydi. Ochiq zanjirli birikmalarning konformatsiyasiga etanning to'silgan va to'xtatilgan konformatsiyalari kiradi.

Etan molekulasi eng oddiy birikma bo'lib, murakkab tuzilishli birikmalarda katta hajmli o'rinbosarlarning o'zaro bir-biridan itarilishi sodir bo'ladi, bu esa sistema energiyasini oshiradi, bu vaqtda hosil bo'ladigan kuchlanish Van-der-Vaals kuchlanish deyiladi. Etan va propanda o'rinbosar (N va SN_3) larning hajmi kichik bo'lganligi uchun ularda Van-der-Vaals kuchlanish bo'lmaydi, lekin butanda esa ikkita SN_3 guruh bo'lganligi sababli kuchlanish mavjud.




12-rasm. Etanning konformatsiyalari A- to'silgan, B-to'xtatilgan, V- umumiy ko'rinishi.

Uzun zanjirli uglevodorolarda burilish bir necha S-S bog' atrofida sodir bo'ladi. Shuning uchun uglerod zanjiri turli konformatsion shakllarga (qisqichsimon, egri-bugri, muntazzam va muntazzam bo'lmagan, lotincha "U" shaklidagi va h.k.) ega bo'ladi:



Egri-bugri konformatsiyada bir-biridan uzoqda joylashgan uglerod atomlariga bog'langan funktsional guruhlar qisqichsimon konformatsiyada bir-biriga yaqinlashib qolishi natijasida o'zaro reaksiyaga kirishib ketishi mumkin. Masalan, shunday hodisalar glutar kislotasi molekulasi zanjirining uchlaridagi karboksil guruhlari o'zaro yaqinlashib qolganda bir-biri bilan totishish energiyasi natijasida zanjir uchlaridagi funktsional guruhlar o'zaro ta'sirlashib, reaksiyaga kirishish hollar ham sodir bo'lishi mumkin:



Halqali anhidridlar, efirlar, amidlar va boshqa halqali birikmalar hosil bo'ladigan bunday ichki molekulyar reaksiyalar organik kimyoda keng tarqalgan.

Alifatik birikmalar konformatsiyalari

Konformatsiya va konfiguratsiya. Burilish izomeriyasi. Konformatsion o'zgarishlarni Fisher, Nyumen, yonlama proektsiyalar hamda grafik usulda tasvirlash. Etan, propan va butanlarni konformerlarini yonlama va Nyumen proektsiyalari.

Etan molekulasidagi vodorod atomlari yadrolari (n,n), bog' elektronlari (e,e) yadro bilan bog' elektronlari (n,e) o'zaro ta'siri energiyasi bilan molekulaning umumiy aylanish energiyasi o'rtasidagi bog'liqlik

$$E_{um} \approx E_{e,e} + Q E_{n,n} + Q E_{n,e} + Q T$$

Umumiy energiyaning grafik tasviri, konformatsiya energiyasi. Nyumen proektsiyalari yordamida konformerlarning barqarorlik energiyasini tahlil qilish mumkin. Konformerlar tahlili, dipol doimiyligi, IQ-, PMR-spektroskopiyasi orqali ham amalga oshiriladi.

Konformerlarning barqarorligi temperaturaga va erituvchining tabiatiga qarab o'zgaradi, bu esa ularning reaksiya qobiliyatiga ta'sir etadi.

1,2-Dixloretan, propan, butan, 2-brom-3-butanol va vino kislotasining konformerlarini Fisher proektsiyalarida ifodalab barqarorlikka omil bo'luvchi ta'sirlarni aniqlash mumkin.

Nazorat savollari:

1. Konfiguratsion izomerlarga misollar keltiring.
2. Enantiomerlarga misollar keltiring?
3. Molekulaning xiral markazini qanday izohlaysiz?
4. Molekulalarning fazoviy tuzilishi har xil bo'lishiga sabab nima?
5. Oktaedrik konfiguratsiyaning hosil bo'lishini izohlang?

3-ma'ruza: ETILEN BIRIKMALARINING GEOMETRIK IZOMERLARI, IZOMERLAR SONI

REJA:


1. Alkenlardagi stereoizomeriyaning sabablari;
2. Geometrik izomeriya;
3. Kumulen birikmlarining stereoizomerlari.

Geometrik izomeriya


Geometrik izomeriya- tarkibida qo'sh bog' tutgan birikmalar (SqS, SqS, SqN va boshq.) hamda noaromatik tsiklik birikmalarda uchraydi. Ulardagi geometrik izomeriya (konfiguratsion izomeriya): π -diastereomeriya yoki tsis- va trans-izomeriya deyiladi.

Geometrik izomerlarga etilen 1,2-dikarbon kislotaning tsis- shakli (malein


kislota) va trans- shakli (fumar kislota)ni yoki tsiklopropan 1,2-dikarbon kislotaning tsis- va trans- shakllarini misol qilish mumkin.




tsis-izomer



trans-izomer




tsis-izomer




trans-izomer

Qo'sh bog' tutgan uglevodorodlar va to'yinmagan bir va ikki asosli kislotalarda ham konfiguratsion izomerlar uchraydi. Ulardagi izomeriya π -diastereomeriya yoki tsis- va trans- izomeriya deyiladi. buni buten-2 ning tuzilish formulasida ko'rish mumkin:




Tsis- izomer



trans-izomer


Buni buten-2 molekulasining shar sterjenli modelida quyidagicha tasavvur qilish mumkin:




Tsis- va trans- izomeriyaning vujudga kelishining sababi π - bog' atrofida uni uzmay turib erkin aylanish mumkin emasligidir. Molekula tarkibidagi guruhlarning π - bog' atrofida fazoviy joylashishi bilan farqlanadi.

Tsis- va trans- izomerlarmolekulaning simmetriya tekisligi mavjud bo'lganligi uchun ular enantiomerlar ko'rinishida mavjud bo'la olmaydi, shuning uchun ular π – diastereomerlardir.

Masalan: Butendikislota $\text{HOOC}-\text{C}(\text{H})=\text{C}(\text{COOH})-\text{H}$ ikkita π – diastereomer malein (tsis-) va fumar (trans-) kislotalar ko'rinishida bo'ladi:



Tsis-izomer
(malein kislota)



Trans- izomer
(fumar kislota)

4-ma'ruza: KONFORMATSIYALAR ANALIZI

REJA:

1. Konformerlarning tuzilishi;
2. Konformatsiyalar effekti: gosh effekt, anomer effekti;
3. Konformerlar tuzilishini IQ-, PMR-spektrlari va rentgenstruktur analizi yordamida o'rganish
4. To'silgan va to'xtatilgan konformatsiya.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: konformatsiya, ochiq zanjirli, yopiq zanjirli, tsiklogeksan, kreslo konformatsiya, vanna konformatsiya, konformatsion izomeriya.

Alifatik birikmalar konformatsiyalari

Konformatsiya va konfiguratsiya. Butilish izomeriyasi. Konformatsion

o'zgarishlarni Fisher, Nyumen, yonlama proektsiyalar hamda grafik usulda tasvirlash. Etan, propan va butanlarni konformerlarini yonlama va Nyumen proektsiyalari.

Etan molekulasidagi vodorod atomlari yadrolari (n,n), bog' elektronlari (e,e) yadro bilan bog' elektronlari (n,e) o'zaro ta'siri energiyasi bilan molekulaning umumiy aylanish energiyasi o'rtasidagi bog'liqlik


$$E_{umq} E_{e,e} Q E_{n,n} Q E_{n,e} Q T$$


Umumiy energiyaning grafik tasviri, konformatsiya energiyasi. Nyumen proektsiyalari yordamida konformerlarning barqarorlik energiyasini tahlil qilish mumkin. Konformerlar tahlili, dipol doimiyligi, IQ-, PMR-spektroskopiyasi orqali ham amalga oshiriladi.

Konformerlarning barqarorligi temperaturaga va erituvchining tabiatiga qarab o'zgaradi, bu esa ularning reaksiya qobiliyatiga ta'sir etadi.

Ochiq zanjirli birikmalarning konformatsiyasiga etanning to'silgan va to'xtatilgan konformatsiyalari kiradi.

Etan molekulasida eng oddiy birikma bo'lib, murakkab tuzilishli birikmalarda katta hajmli o'rinbosarlarning o'zaro bir-biridan itarilishi sodir bo'ladi, bu esa sistema energiyasini oshiradi. Bu vaqtda hosil bo'ladigan kuchlanish Van-der-Vaals kuchlanish deyiladi. Etan va propanda o'rinbosar (N va SN₃) larning hajmi kichik bo'lgani uchun ular Van-der-Vaals kuchlanish yo'q, lekin butanda ikkita SN₃ guruh bo'lganligi sababli kuchlanish mavjud.









3.1-rasm. Etanning konformatsiyalari A- to'silgan, B-to'xtatilgan, V- umumiy ko'rinishi.


Uzun zanjirli uglevodorolarda burilish bir necha S-S bog' atrofida sodir bo'ladi. Shuning uchun uglerod zanjiri turli konformatsiyalarga (qaychisimon, egri-bugri va h.k.) ega bo'ladi:

Egri-bugri konformatsiyada bir-biridan uzoqda joylashgan uglerod atomlari qisqichsimon konformatsiyada bir-biriga yaqinlashib qoladi. Bu vaqtda zanjir uchlaridagi funktsional guruhlar o'zaro ta'sirlashib, reaksiyaga kirishish hollari sodir bo'lishi mumkin.



1 va 2 konformerlar barqarorroq.

Karboniy ionlarining konformerlari ham o'rganiladi. Masalan:




5-ma'ruza: HALQALI TUZILISHGA EGA BO'LGAN BIRIKMALAR STEREOKIMYO SI

1. Optik va geometrik izomerlarning bir vaqtda uchrashi;
2. Halqali tuzilishga ega bo'lgan stereoizomerlarni ifodalash usullari;
3. Halqali birikmalarning hosil bo'lishi va barqarorligi. Torsion va burchak kuchlanish.

Halqali birikmalarning konformatsiyasiga olti a'zoli tsikloalkanlarni misol qilish mumkin. Olti a'zoli halqa ***burchak kuchlanish*** tufayli yassi bo'lib, bir tekislikda yotishi mumkin emas, shuning uchun ham tsiklogeksan halqasi uchta tekislikda

yotadi. Sakse va Mor nazariyalariga ko'ra tsiklogeksanda fazoviy konformerlari «kreslo» va «qayiq» shaklda bo'ladi.



3.2-rasm. Tsiklogeksanning “qayiq” va “kreslo” shakllari.

Molekulaning qismlari egilganda ushbu shakllar biri ikkinchisiga o'tib turadi. «Kreslo» shakli ko'proq turg'un bo'lib, xona haroratida 99% ni tashkil qiladi, qolgan 1,0% «qayiq» shaklga to'g'ri keladi. Qayiq shaklning beqaror bo'lishiga sabab bir-birini itarishadigan N atomlari o'zaro yaqin kelganda itarishib «kreslo» shaklga o'tadi. Qayiq shaklning energiyasi kreslo shaklga nisbatan 35 kJ/mol ko'p, shuning uchun molekulaning qayiq shakli beqaror bo'ladi.

Bu konformatsiyalar osonlik bilan bir-biriga o'tib turadi, ammo potentsial to'siqning qiymati katta bo'lsa, molekulaning kinetik energiya zapasi uni engib o'tishga etmaydi va konformatsiyalar o'zaro barqaror bo'ladi.


Aromatik birikmalarda tsiklogeksandagidek konformatsion holatlar bo'lmaydi, buning sababi benzol va naftalin molekulalari planardir, chunki ularda sp^2 holdagi gibrizlanish mavjud bo'lib, π -bog'larni hosil qiluvchi va 2r orbitallarda joylashgan r- elektronlar bir-birini to'liq qoplaydi. Bunday qoplanishning butun halqa bo'yicha bir tekis taqsimlanishi aromatiklik xossaga ega bo'lishini taminlaydi. Tsiklogeksanda esa r- elektron bulutlari fazoda joylashganligi uchun ular bir-birini qoplasha olmaydi. Tsikloalkanlarda “qayiq” va “kreslo” konformatsiyalarining paydo bo'lishining sababi shundandir. Shuning uchun tsikloalkanlar aromatiklik xossasiga ega emas.

Tsiklik birikmalar konformatsiyalari to'g'risida fikir yuritilganda albatta tsiklopropan, tsiklobutan va tsiklogeksanlarda uchraydigan optik izomeriya

haqida gapiriladi.


Aromatik birikmalar kimyosining rivojlanishi tsiklik birikmalar uglevodorodlar kimyosining rivojlanishiga sabab bo'ldi. Bu birmuncha kechroq amalga oshdi. Masalan, tsiklobutan 1882 yilda, tsiklopropan esa 1907 yilda sintez qilingan. Tsiklopentan va tsiklogeksanlar neft tarkibida uchraydi. Tsiklik birikmalar: kichik, odatdagi, o'rtacha va katta halqali birikmalarga bo'linadi. Kichik halqali birikmalarga tsiklopropan va tsiklobutanlar kiradi, bularning barqarorligiga Bayer va Pittser kuchlanishlari va bog' uzunligining o'zgarishining ta'siri. Tsiklopropan, tsiklobutan va tsiklopentan hosilalarining (bitta, ikkita o'rinbosari bo'lgan) konformatsiyalari umuman qo'zg'almas bo'lib ularda geometrik va optik izomeri birga keladi.

Nosimmetrik almashgan tsiklopropan, tsiklobutan va tsiklopentan hosilalari:




Tsiklogeksan

Bizga tsiklogeksan molekulasi ikki xil kreslo va vanna shaklda mavjudligi hamda ular bir-biriga oson o'tib turishiligi ma'lum.




Vanna shaklida 2,3 va 5,6 uglerodlar to'silgan hamda 1 va 4 uglerod atomlarining o'rinbosarlari bilan o'zaro ta'sirlashadi, chunki Van-der-vals radiusi $2,4 \text{ \AA}$, S_1-S_4 orasidagi masofa esa $1,8 \text{ \AA}$ ga teng. Ushbu shakllarni sinchiklab o'rganib kreslo konformerda juft joylashgan toq konformatsiyaga to'g'ri keladi


deyishimiz mumkin:




Molekulaning vanna shaklida esa S1-S4 atomlarning joylashishi juft konformatsiyani eslatadi:



Yuqorida biz kreslo va vanna shakllarni bir-biriga o'tish oson o'tadi dedik, aslida esa quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:




Kreslo shaklda molekulaning 6 ta vodorod atomi aksial, 6 ta vodorodi esa ekvatorial yo'nalishga ega:



Tsiklogeksan molekulasi uchinchi tartibli simmetriya o'qiga ega. Kreslo shaklining Nyumen proektsiyasidan qo'shni vodorod atomlari bir-birini to'smaydi, bu esa kreslo shaklning barqarorligini ko'rsatadi.

Bitta o'rinbosari bo'lgan tsiklogeksanda o'rinbosar halqa konversiyasi tufayli kreslo konformerda ekvatorial holatda bo'ladi, muvozanat shu konformer tomoniga siljigan bo'ladi:




Konformatsiya energiyasi o'rinbosarning hajmiga qarab o'zgaradi: SN_3 - 1,7 kkalG'mol, izo- S_3N_7 - 3,3 kkalG'mol, uchl.- S_4N_9 - 5,4 kkalG'mol.


Konformerlarning barqarorligiga o'rinbosarlarning dipol-dipol ta'sirlashishlari va erituvchilar tabiati ta'sir ko'rsatadi.

Ikkita o'rinbosarli tsiklogeksan

O'rinbosarlar (bir xil bo'lganda) ular bitta uglerod atomlarida, ikkita qo'shni (1,2) yoki 1,3 va 1,4 uglerod atomlarida joylashgan bo'lishi mumkin:




Bu qatorda 1,2; 1,3 va 1,4 dialmashgan tsiklogeksan hosilalari tsis- va trans- izomerlar shaklida mavjud bo'lib bulardan 1,2 va 1,3 dialmashganlari optik izomerlarga ega. Har bir geometrik izomer ikkita konformer shaklda muvozanatda bo'ladi. Bunday konformerlar tarkibida hajmi katta bo'lgan o'rinbosar ekvatorial holatni egallagan konformerining ulushi ko'proq bo'ladi. Masalan uchlamchi butil guruh tutgan tsiklogeksan bu guruh har doim ekvatorial holani egallaydi, demak muvozanat shu tomonga siljigan bo'ladi:



O'rtacha va makrohalqali birikmalar

O'rtacha makrohalqali birikmalar S_8 - S_{11} uglerod atomlaridan tashkil topgan


bo'lib o'ziga xos tuzilishga ega. Ular integranular (halqaga kiruvchi) va ekstranulyar (halqadan chiquvchi) o'rinbosarlarga ega bo'lishi mumkin:




Molekulalar juda qo'zg'aluvchan bo'lib, ularda tsis-, trans-izomeriya kuzatilmaydi. Makrotsiklik birikmalarda 12 va undan ortiq uglerod atomiga ega molekulalar mutlaq kuchlanishga ega emas, bularda ham tsis-, trans- izomeriya mavjud emas.

Kondensirlangan birikmalar


Bunday birikmalarga bitsiklobutan, bitsiklopentan, bitsiklogeksan va bitsiklogeptanlardan tashkil topgan qatorida halqalarning kondensirlanishi tsis-tipida bo'ladi. Masalan:




Bitsiklopentandan boshlab kondensirlanish trans- bo'lishi ham mumkin: bitsiklooktan [3,3,0]:




Gidrandan, (bitsiklononan [4,3,0]):




Dekalin (pergidronaftalin):



Pergidrofenantren ikkita mezo- va to'rtta d,l izomerlar shaklida uchrashi mumkin:



Pergidroantratsen 6 ta konformatsiyaga ega, bulardan 4 tasi mezo-, bittasi esa d,l shaklda bo'ladi:



Pergidrofenantren va pergidroantratsenlar sistemasi qo'zg'almas sistema bo'lib konformatsion barqarorlikka ega.

Nazorat savollari

1. Halqali birikmalarning konformatsion holatlari qanday ifodalanadi;
2. Kondensirlangan halqali birikmalarning konformatsiyalarini tushuntiring;
3. Konformatsion barqarorlikka ega bo'lgan sistemalarga izoh bering.

6 –ma’ruza. MOLEKULYaR ASIMMETRIYA

REJA:

1. Molekulalar simmetriyasi. Simmetriya elementlarining xillari. Simmetriya amallari.
2. Molekulyar assimetriya Spirobirikmalar stereokimyosi.
3. Atropoizomerlanish va uning sodir bo’lishini asoslash.

Molekulada atomlarning joylashishi aniq simmetriyaga ega bo’ladi. Simmetriya xilini bilish molekulaning fazoviy tuzilishini, shuningdek, turli xil (optik, elektrik va boshqa) xossalarini aniqlash va oldindan aytib berish imkonini beradi. Simmetriya elementlarini aniqlashda molekulani nuqtaviy kattaliklarga ega bo’lgan sistema deb qarash mumkin. Molekulalarda asosan uch xil simmetriya elementi bo’ladi, ulardan birinchisi *simmetriya tekisligi* - aks ettirish tekisligi hisoblanadi. Sistemani nuqtaviy kattalikdan iborat deb faraz qilaylik va bu nuqtalarni tekislikda aks ettirilganda, ular orasidan bir yoki bir necha tekislikni o’tkazilib, uni aks ettirilganda molekulaning xossasi o’zgarmay qoladigan tekislikdir. Masalan, suv molekulasida ikkita simmetriya tekisligiga ega, ya’ni molekula joylashgan tekislik va NON burchakning bissektrisasidan o’tuvchi unga perpendikulyar bo’lgan ikkinchi tekislik. Vodorod atomining aksini ikkinchi tekislikka vodorod atomini o’tkazilganda, birinchisidan farq qilmagan va shu bilan birga molekulaning xossasi o’zgarmagan. Shuning uchun suv molekulasida uchun ikkita simmetriya tekisligi mavjud. Etilen molekulasida ham bir-biriga perpendikulyar bo’lgan ikkita simmetriya tekisligiga ega. Simmetriya tekisligi grekcha σ - (“sigma”) harfi bilan belgilanadi.

Tsis-trans izomerlarda molekulaning simmetriya tekisligi mavjud bo’lgani uchun ular enantiomerlar ko’rinishida bo’la olmaydi. Shuning uchun tsis-trans izomerlar bir-biriga nisbatan π - diastereomerlardir.

Simmetriya elementining ikkinchi xili aylanish S_n o’qidir. Molekulaning aylanishning *simmetriya o’qi* deb molekulani ma’lum bir φ -burchakka burganda u o’zining dastlabki holatiga qaytishini ta’minlovchi chiziqqa aytiladi. Simmetriya o’qi har xil tartibli bo’ladi. O’qning tartibi molekulani 360^0 ga


aylantirganda, u necha marta o'zining dastlabki holatiga o'tishini ko'rsatadi. Suv molekulasida ikkinchi tartibli simmetriya o'qiga ega. Simmetriya o'qi S bilan ifodalanadi, indeks sifatida uning tartibi ko'rsatiladi (masalan n -chi tartibli simmetriya o'qi). Suv uchun $n = \frac{360}{180} = 2$, ammiak molekulasida uchun $n = 3$ ga

teng, chunki $n = \frac{360}{120} = 3$ va h.k.


Ammiak molekulasida S_3 dan tashqari yana uchta simmetriya tekisligi bo'lib, ular N-H bog'lari va qarama-qarshi tomondagi katetning yarmi orqali o'tadi.

Uchinchi xil simmetriya elementi- bu simmetriya markazidir. *Simmetriya markazi* bu, sistemani material nuqtalardan iborat sistema deb faraz qilinib, uning barcha nuqtalarini aks ettirgan vaqtda sistemaning holati dastlabki holatga o'xshash bo'lishini ta'minlaydigan nuqtaga aytiladi.

Simmetriya markazi i harfi bilan belgilanadi.



simmetriya markaziga ega emas.





simmetriya markaziga ega

Simmetriya amallari shunday matematik amalki, uni amalga oshirish natijasida molekulaning konfiguratsiya va konformatsiyalari, shuningdek, boshqa xossalari ham o'zgarmaydi. Asosiy simmetriya amallariga ichki aylantirish va burib aks ettirish kiradi.

Burib aks ettirish uchun molekulani avval ma'lum φ burchakka buriladi va so'ngra sturuktura elementlarini ma'lum tekislikda aks ettiriladi.

Ichki aylanish molekulalar ichida ro'y beradigan hodisalardan biridir. Ichki aylanish bu, molekulaning ayrim qismlarini ya'ni atomlar guruhlarini ichki kinetik energiya hisobiga kimyoviy bog'lar (bu bog'lar σ - bog'lar bo'lishi shart!) atrofida bir-biriga nisbatan aylanishiga aytiladi. Aylanish davomida bu guruhlar ma'lum qiymatga ega bo'lgan potentsial to'siqni engib o'tishi kerak. Agar potentsial to'siqning energiyasi 3 kkal ga yaqin bo'lsa, atom va atom guruhlarini bir tekis aylanadi. Bunga etan molekulasidagi metil guruhlarining bir-biriga nisbatan aylanishi misol bo'ladi:



Agar potentsial to'siqning qiymati 3 kkal dan katta bo'lsa, atom guruhlarini to'xtab-to'xtab aylanadi. Agar potentsial to'siqning qiymati 5 kkal dan katta bo'lsa, aylanayotgan guruhlar fazoviy to'siqlarga duch kelgan, hatto birlamchi


bog' atrofida ham aylanish taqiqlangan bo'ladi. Bunday hollarda guruhlar bog'lar atrofida $5^0 - 20^0$ gacha buriladi xolos. Molekulaning bunday konformatsiyasi barqaror bo'lib, molekula «qattiq» sistema deb qaralishi mumkin.

Molekulyar assimetriya


Spirobirikmalar: ikkita halqadan tashkil topgan bo'lib bitta umumiy uglerod atomiga ega. Masalan, spirosiklogeksan:



Katenanlar ikkita biri ikkinchisini ichiga kirib (zanjir shaklida) hosil qilgan halqalardan tashkil topgan bo'ladi: [2] [tsikloeykozan] [tsikloeykozan] katenan:




Rotaksanlar esa ip o'raladigan g'altakni eslatadi. Bunday birikmada o'zakcha (g'altakchaga) halqa shaklidagi molekula kiyilib qolganek bo'lib ko'rinadi va u o'zak atrofida aylanish xususiyatiga ega:



[2] [1,10-difenildekan] [tsikloeykozan] rotaksan

Atropoizomerlarga misol tariqasida o,o,o',o'-dinitrodifen kislotasini yoki tabiiy birikma gossipolni keltirish mumkin. Bu moddalar konformerlarini hosil bo'lishi va ularning barqaror bo'lishi fenil va naftil guruhlari orasida bir-biriga nisbatan erkin aylanish yo'qligidandir:




Kaliks [n] arenlar. Bu sinf birikmalari o'tgan asrning boshlarida sintez qilingan bo'lib, ularning tuzilishi esa 1970 yillarda aniqlangan. Kaliksarenlar asosan p-almashgan fenollarning formaldegid bilan turli sharoitda ishqorlar ishtirokida kondensirlanishida hosil bo'ladi. Molekula tekis bo'lmay, fazoviy tuzilishi kesik konusni eslatadi. Nomlashdagi n-4, 5, 6, 7, 8 va hokazo bo'lishi mumkin. Kaliks so'zi grekchada chashka (piyola) ma'nosini bildirsa, aren aromatik yadrolarni, qavs ichidagi raqam esa halqani tashkil qilayotgan aromatik yadrolar sonini ko'rsatadi. Kaliks [n] arenlar konformatsion harakatchanlikka ega, masalan uchlamchibutikaliks [4] aren to'rtta konformeriga ega.

Simmetriya amallari shunday matematik amalki, uni amalga oshirish natijasida molekulaning konfiguratsiya va konformatsiyalari, shuningdek, boshqa xossalari ham o'zgarmaydi. Asosiy simmetriya amallariga ichki aylantirish va burib aks ettirish kiradi.

Burib aks ettirish uchun molekulani avval ma'lum φ burchakka buriladi va so'ngra sturuktura elementlarini ma'lum tekislikda aks ettiriladi.

Ichki aylanish molekulalar ichida ro'y beradigan hodisalardan biridir. Ichki aylanish bu, molekulaning ayrim qismlarini ya'ni atomlar guruhlarini ichki kinetik energiya hisobiga bir-biri bilan bog'lab turuvchi kimyoviy bog'lar (bu bog'lar σ - bog'lar bo'lishi shart!) atrofida bir-biriga nisbatan aylanishiga aytiladi. Aylanish davomida bu guruhlar ma'lum qiymatga ega bo'lgan potentsial to'siqni engib o'tishi kerak. Agar potentsial to'siqning energiyasi 3 kkal ga yaqin bo'lsa, atom va atom guruhlarini bir tekis aylanadi. Bunga etan molekulasidagi metil guruhlarining bir-biriga nisbatan aylanishi misol bo'ladi:



2.1-rasm. Etan molekulasining ichki burilishi.

Agar potentsial to'siqning qiymati 3 kkal dan katta bo'lsa, atom guruhlarini to'xtab-to'xtab aylanadi. Agar potentsial to'siqning qiymati 5 kkal dan katta bo'lsa, aylanayotgan guruhlar fazoviy to'siqlarga duch kelgan, hatto birlamchi bog' atrofida ham aylanish taqiqlangan bo'ladi. Bunday hollarda guruhlar bog'lar atrofida 5° - 20° gacha buriladi xolos. Molekulaning bunday konformatsiyasi barqaror bo'lib, molekula «qattiq» sistema deb qaralishi mumkin.

Nazorat savollari:


1. Simmetriya elementlarini izohlang.
2. Asosiy simmetriya amallarini tushuntiring.
3. Diastereomeriyaning hosil bo'lish sababini izohlang.
1. Konformerlarga misollar keltiring.
2. Van-der-Vaals kuchlanish sistemaning energiyasiga qanday ta'sir qiladi va uning qanday ahamiyati bor
3. Asosiy simmetriya amallarini izohlab bering.
4. Simmetriya tekisligiga tavsif bering.
6. Simmetriya o'qining tartibini izohlang.
7. Suv molekulasini uchun simmetriya o'qi tartibi nechaga teng?
8. Molekulya asimmetriyaga misollar keltiring.
9. Spirani birikmalarga misollar ayting.
10. Atropoizomerlanishni izohlang.

**7-mavzu: RATSEMATLANISH. ENANTIOMERIYA.
STEREOIZOMERLARNI OLISH USULLARI**


REJA:

1. Ratsemlarning hosil bo'lishi.
2. Stereoizomerlarni olish usullari.
3. Qisman ratsemlanish. Mutoratatsiya.



Organik birikmalar tarkibiga kiruvchi azot atomi odatda uch valentli yoki to'rt kovalentli bo'ladi. To'rt kovalentli azot atomi odatda uglerod atomi kabi $109,5^\circ$ ga teng valent burchaklari hosil qilib tetraedrik tuzilishga ega:



Uch valentli azot birikmalari, turli radikallarga ega bo'lgan trialkilaminlar, o'rtacha yoki katta halqa tutgan va azot atomiga ega bo'lgan birikmalarda azotning bo'sh elektron juftini hisobga olib, piramidal tuzilishga ega bo'lsada, molekula bunday birikmalarda azot atomi ishtiroki bilan tez amalga oshadigan inversiya tufayli konformerlarga ajralmaydi:



Uch a'zoli halqasida azot atomi bo'lgan birikmalarda Tryoger asosi deb nomlangan birikmada bunday inversiya to'xtatilgan bo'ladi:




Oksimlarda esa, monoketonlar oksimlari sin-, anti-, diketonlar oksimlari

anti-, anti-; sin-, anti- va sin-, sin- konformerlar shaklida uchraydi. Shiff asoslari ham sin- va anti- konformerlar shaklida uchraydi.

Dinamik stereoximiya

Kimyoviy reaksiyalarni o'rganishda 1) reaksiyaning fazoviy qanday kechishini, 2) tuzilishini, konfiguratsiya va konformatsiyaning reaksiya tezligiga, uning amalga oshishiga ta'sirini aniqlash lozim.

Almashinish reaksiyalari:




Almashinish reaksiyalari ikki xil mexanizmda amalga oshadi:




Reaksiya $S_{\text{N}}1$ mexanizmda borsu bunda karbokation hosil bo'lib, natijada ratsemat hosil bo'ladi.

Reaksiya $S_{\text{N}}2$ mexanizmda amalga oshsa:



ideal holatda konfiguratsiyasi teskariga almashgan mahsulot hosil bo'ladi. Valden aylanishi:



Bunda KON ta'sirida konfiguratsiya aylanadi.

Nukleofil almashinish reaksiyalarida qo'shni guruhlar ta'siri va albatta muhitning ta'sirini hisobga olish lozim.

Tsiklik qator birikmalarda o'rin almashish xalqaning hajmi va kuchlanganligiga bog'liq.

Halqa	3	4	5	6
Reaksiya				
S_N1	sekin	sekin	tez, oson	nisbatan yaxshi
S_N2	sekin	sekin	tez, oson	sekin

Almashinish 3 va 4 a'zoli xalqalarda S_N1 mexanizmda oshishi karbokation hosil bo'lishi orqali borishi lozim, bunda esa burchak kuchlanish yanada oshadi, bu esa energetik jihatdan noqulay.

Besh a'zoli xalqa tutgan birikmalarda esa almashinishning o'tish holatida hech qanday kuchlanish sezilmaydi.

Olti a'zoli tsiklogeksan molekulasida S_N1 mexanizm xalqaning burchak kuchlanishini oshirsada o'ribosar aksial holatda bo'lgan konformerlarda almashinish tezroq amalga oshadi.

Nazorat savollari :

1. Ratsimatlarni ajratish qanday amalga oshiriladi javobingizni izohlang;
2. O'rin almashinish reaksiyalaridagi ratsematlanishga misollar keltiring;
3. Qisman ratsematlanish nima?
4. Mutoratatsiya hodisasini misollar asosida izohlang.


8-mavzu: OPTIK IZOMERLARNI OLISH USULLARI

REJA:


1. Optik izomeriya. Optik izomerlarni olish usullari.
2. Organik birikmalardagi D, L va R, S nomenklaturalar
3. Antipodlarni diastereoizomerlarga aylantirish jarayonlari.

Optik izomerlar yuqorida takidlanganidek, qutblangan nur tekisligini burish hossasiga ega bo'lgan birikmlar bo'lib, bunday birikmalarni o'rganish organik kimyoda juda katta amaliy ahamiyatga egadir va shuning uchun optik izomerlarni olish reaksiyalarini va ularning mexanizmini o'rganish stereokimyoning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.


Organik kimyoda parchalanish reaksiyalari natijasida optik izomerlarni olish mumkin. Eng yaxshi va ko'p o'rganilgan ajralish reaksiyalar degidrogalogenlash va degidratlash bo'lib, ular ikki xil mexanizmda amalga oshadi: E1 va E2.




Hozirgi vaqtda ajralib chiquvchi guruhlar bitta tekislikda bo'lishi lozim deb hisoblanadi. Bunda degidrogalogenlash va degidratlanish reaksiyalarida trans- ajralish amalga oshishi isbotlangan:



Masalan 2-almashgan butanda ajralish quyidagicha amalga oshadi:



2,3-dialmashgan butanda esa ajralish quyidagicha sodir bo'ladi:




Eritro yutuqsiz, noqulay konformerlarda ajralish mahsulotini (energiyasi yuqori) hosil qiladi (tsis-izomer).


Treo- izomerda ikkita X va ikkita N bir xil tekislikda yotadi va ajralish tezligi katta bo'lib trans-alken hosil qiladi.

Birikish reaksiyalari

Birikish reaksiyalari tsis- yoki trans- tipda amalga oshishi mumkin. Trans-shaklda birikish:




Tsis- shaklda birikish:



Elektrotsiklik reaksiyalar

Bir guruh reaksiyalar radikal yoki qutbli mexanizmida amalga oshmasligi aniqlangan. Bunday reaksiyalarga qutbli reagentlar ham ingibitorlar yoki katalizatorlar, initsiatorlar ham ishtirok etmaydi. Masalan, Dils-Alder reaksiyasi:



Tsiklik o'tish holati orqali amalga oshadigan reaksiyalarni "Piritsiklik

reaktsiyalar” deb yuritish qabul qilingan. Bunday reaktsiyalarni amalga oshirish termik yoki fotokimyoviy usulda bo’lib turli stereokimyoviy natijaga erishiladi.

Nazorat savollari :

1. Optik izomerlarning xossalarini tushuntiring;
2. Optik izomerlarni olish qanday amalga oshiriladi javobingizni izohlang;
3. Parchalanish reaktsiyalari natijasida olinadigan optik izomerlarga misollar keltiring;
4. Trans- va tsis- shaklda birikish reaktsiyalarini misollar asosida tushuntiring;
5. Elektrotsiklik reaktsiyalarning mohiyatini tushuntiring.

9-mavzu: KONFIGURATSIYANI ANIQLASH


REJA:

1. Geometrik izomerlar konfiguratsiyalarini aniqlash usullari;

2. Diastereomerlar va antipodlar konfiguratsiyalarini anishlash;
3. Konfiguratsiyalarni aniqlashning kimyoviy va optik usullari.
4. **Asimmetrik sintez va uning axamiyati.**


Fazoviy izomerlar bir– biri bilan molekuladagi atomlar yoki atomlar guruhining fazoviy joylanishi bilan farq qiladi. Guruhlarning fazoviy joylashishini tavsiflash uchun ikkita eng muhim tushunchalardan foydalaniladi, ular konfiguratsion va konformatsion holatlardir.

Fazoviy kimyoning asosida uglerod atomining tetraedrik konfiguratsiyasi haqidagi Vant-Goff gipotezasi yotadi. Agar uglerod atomidagi 4 ta o'rinbosarlarning hammasi bir xil bo'lsa, u holda uglerod atomining fazoviy nusxasi to'g'ri tetraedrik bo'lib, uning markazida uglerod atomi, uchlarida esa o'rinbosarlar joylashgan bo'ladi. Bunday joylashishda valent burchaklar $109^{\circ}28'$ ga teng bo'ladi. Bunday burchakni normal burchak deb qabul qilingan, Metan CH_4 va uglerod (IV)-xlorid CCl_4 kabi molekulalarda uglerod atomining fazoviy nusxasi to'g'ri tetraedrik bo'ladi masalan:



10- rasm. Metan CH_4 va uglerod (IV)-xlorid CCl_4 molekulalarining tetraedrik va fazoviy strukturalari.


Uglerod atomi bilan bog'langan o'rinbosarlar bir xil bo'lmagan hollarda valent burchaklar normal holatdan bir necha gradusga og'ishi mumkin. Masalan, SN_3SI da molekula tetraedrik konfiguratsiyaga ega bo'lsa ham N-S-N orasidagi valent burchak $111^{\circ}C$ ga teng bo'ladi:



sp^3 -gibridlangan uglerod atomi tetraedrik konfiguratsiyaga ega bo'ladi. Bunday tuzilish to'yingan uglevodorodlar va ularning hosilalari uchun xosdir.


Konfiguratsiya-molekuladagi atom va atom guruhlarining fazoda ma'lum tartibda joylashishidir. Bir xil tarkib va bir xil kimyoviy tuzilishga ega bo'lgan organik birikmalar o'zaro konfiguratsiyasi bilan farqlanishi ma'lum, bunday moddalar o'zaro konfiguratsion izomerlar deyiladi.

Konfiguratsion izomerlarga tarkibida xiral (yoki assimetrik) uglerod atomi bo'lgan birikmalarni misol qilish mumkin. Masalan, sut kislotasining ikkita turi go'sht sut kislota va maxsus sut kislota bir-birining ko'zgodagi aksidek bo'ladi, ya'ni ular enantiomerlardir.



Enantiomerlar tuzilishi jihatdan o'xshasa ham, ularning molekulasida tarkibidagi guruhlar bir-birining ustiga tushmaydi, balki bir-birining ko'zgodagi aksi kabi ekanligi seziladi. Shuning uchun fazoviy izomeriyani bu turi optik izomeriya deyiladi. Optik izomerlarda asimmetrik uglerod bilan bog'langan guruhlar fazoda turlicha joylashadi. Yuqoridagi sut kislotaning har ikkala izomerlari ham optik faollikka ega bo'lib, ular yorug'lik nurining qutblanish tekisligini ma'lum burchakga, biri o'ngga, ikkinchisi esa chapga buradi.

Sut kislotaning uchinchi xili achigan sut kislota optik faollikka ega emas, uning tuzilishini birinchi bo'lib, L.Paster aniqlagan. Optik faol bo'lmagan sut kislota teng miqdordagi o'ng va chapga buruvchi izomerlarning aralashmasidan tashkil topgan.



11-rasm. Sut kislotasining konfiguratsion izomerlarining bir-biri bilan ko'zgdagi aksidek ko'rinishi.

Ularning molekulari juft-juft bo'lib birikadi, shuning uchun birining o'ngga buruvchi xossasini ikkinchi molekulaning chapga buruvchi xossasi yo'qqa chiqaradi va natijada modda optik faol bo'lmay qoladi. Bunday moddalarga ratsematlar deyiladi.



Ko'pgina moddalar o'z molekulasida bittadan ortiq xiralik markazi saqlaydi. Molekula bitta xiral markazga ega bo'lsa, ikkita fazoviy izomerga, agar ikkita xiral markazga ega bo'lsa to'rtta fazoviy izomerga ega bo'ladi. Xiralik markazlari ko'payib borsa, fazoviy izomerlar soni Vant-Goff formulasi bo'yicha oshib boradi:

$$N = 2^n$$


bu erda N -izomerlar soni, n -molekuladagi xiral markazlar soni.

Qo'sh bog' tutgan uglevodorodlar va to'yinmagan bir va ikki asosli kislotalarda ham konfiguratsion izomerlar uchraydi. Ulardagi izomeriya π -diastereomeriya yoki tsis- va trans- izomeriya deyiladi.


Masalan: Buten-2



Tsis-trans izomeriyaning vujudga kelishining sababi π -bog' atrofida o'rinbosarning bog' uzilmay turib erkin aylanishi mumkin emasligidir. Ular bir-biridan guruhlarning fazoviy joylashishi bilan farqlanadi, buni quyidagicha tasavvur qilish mumkin:




yoki



Aminobirikmalarni IQ-spektri yordamida aniqlash mumkin. Birlamchi aminlarning spektrida ikkita maksimum bo'lib, N-H bog'ning asimmetrik (3500 sm^{-1}) va simmetrik (3400 sm^{-1}) tebranishlari mavjud.


Nitrobirikmalarning IQ-spektrida ikkita intensiv yutilish chizig'i mavjuddir. Bu tilish $1660\text{-}1625\text{ sm}^{-1}$ va $1300\text{-}1255\text{ sm}^{-1}$ sohada bo'lib, nitroguruhning simetrik va asimmetrik valent tebranishlari bilan bog'liq. Uglerod-azot bog'ining valent tebranishlari 850 sm^{-1} da kuzatiladi.

Benzol yadrosida elektronoaktseptor guruhlar bo'lganda vodorod, galogen atomlari, sulfogurux $-\text{SO}_3\text{H}$, nitrogurux $-\text{NO}_2$ lar nukleofil almashinishi mumkin. Yadroda nukleofil almashinishni osonlashtiruvchi elektronoaktseptor gurux bo'lmagan vaqtda reaksiya degidrobenzol oraliq birikmasi xosil bo'lishi bilan boradi:




Reaksiyaning bu mexanizmini m- va p-krezollarning xosil bo'lishi tasdiqlaydi.

Olefinlarga elektrofil birikish ikki bosqichli reaksiyadir. Tezlikni belgilovchi sekin amalga oshadigan bosqich bu karbokation xosil bo'lish bosqichidir:




Karbokation reaksion aralashmadagi suv yoki spirt kabi erituvchilar xamda yangi molekula olefin bilan xam reaksiyaga kirishishi va izomerlanishi mumkin:




Olefinlarga suvning kislota katalizatorligida birikishi ham karbokation xosil bo'lishi bilan boradi va uning tezligi reaksiyaning umumiy tezligini belgilaydi.

Nosimmetrik tuzilishga ega bo'lgan olefinlarga proton kislotalar birikkanda oraliq maxsulot sifatida xosil bo'lishi mumkin bulgan ikkita karbokationdan energetik nuqtai nazardan qulay bulgan karbokation xosil bo'ladi:






